



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

DUAL TA'LIM ASOSIDA TEXNIKA FANLARINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: ELEKTR ENERGETIKASI TA'LIMI MISOLIDA.....	14
Zoxidov Ikboljon Zokirjonovich	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING SAVDO HAJMINI OSHIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	20
Raxmonova Feruza Musakulovna	
MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT ARALASHUVINING IQTISODIY ASOSLARI	27
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ РИСКОВ НА ПРОДОВОЛЬСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	34
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
KORPORATIV BOSHQARUVDA NOMOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	39
Akmaljon Valijonov	
BYUDJET TASHKIOTLARIDA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING HISOB, NAZORAT VA ICHKI AUDIT OBYEKTI SIFATIDAGI IQTISODIY MAZMUNI	43
Abdulazizov Aziz Anvar o'g'li	
MAMLAKATIMIZ KOMPANIYALARI BOSHQARUV JARAYONLARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR.....	49
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
TIJORAT BANKLARIGA KAPITAL BOZORI ORQALI INVESTITSİYALARNI JALB QILISH YO'LLARI.....	58
Qurbonova Vazira Ravshan qizi	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KOOPERATSIYALARINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL-MOLIYAVIY INTEGRAL INDEKSI	62
Bobojonova Shahnoza Otaxonovna	
DUNYODA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI	69
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ВОЗМОЖНОСТИ АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	73
Муминжонов Анварбек Сайфитдин угли	
ANSWERING BUYER CARBON-DATA REQUESTS: A MINIMUM ACCOUNTING CONTOUR FOR SECOND-TIER EXPORTERS IN EMERGING ECONOMIES.....	82
Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzodovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI	89
No'manov Javoxir Olimjon o'g'li	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ ДЕГУРВА И ГЛОБАЛЬНОГО СЛОЯ НАСЕЛЁННЫХ ПУНКТОВ ПРИ КЛАССИФИКАЦИИ ТЕРРИТОРИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО СТЕПЕНИ УРБАНИЗИРОВАННОСТИ	96
Салимова Юлдуз Исаковна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDII SAMARADORLIGINI BAHOLASH: RAQAMLI INFRASTRUKTURA VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	105
Suyunov Shohzodbek Murod o'g'li	



O'ZBEKISTON MINTAQALARINING IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI KOMPLEKS BAHOLASH VA HUDUDLARARO TAFOVUTLARNI ANIQLASH.....	112
Ismatov Fazliddin Ibdovich	
QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	117
Yunusov Abduvoxid Abdukarimovich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭКОНОМИКИ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	124
Рахмонов Мирвохид Ражабович	
ADVANCING SUSTAINABLE AND GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN THROUGH BILATERAL CARBON CREDITING MECHANISMS.....	133
Dilfuza Arifkhodjaeva	
Gulchekhra Nematullayeva	
Bakhtiyor Pulatov	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEKANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	141
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEKANIZIMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	150
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	156
Асомиддинова Музайянхон Абдурахмон кизи	
AHOLI TURMUSH FAROVONLIGI VA KAMBAG'ALLIK KATEGORIYALARINING NAZARIY-METODOLOGIK EVOLYUTSIYASI HAMDA ZAMONAVIY BOSHQARUV KONSEPSIYALARI.....	164
Negmatullayeva Zarina Baxodirovna	
IQTISODIYOTDA OZIQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISH VA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	171
Siddiqov Zoxid Tulkunovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING KOMPLEKS IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH VA MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	178
Madrahimova Onajon Javlon qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINING YUQORI MALAKALI KADRLARGA BO'LGAN TALABINI SAMARALI QONDIRISHDA OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIM INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH ZARURIYATI	184
Nizamov Aslitdin Badreddinovich	



MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINING YUQORI MALAKALI KADRLARGA BO'LGAN TALABINI SAMARALI QONDIRISHDA OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIM INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH ZARURIYATI

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro davlat texnika universiteti professori, i.f.d.

Qurbonova Xumora Begmurodovna
Buxoro davlat texnika universiteti doktoranti
E-mail: qurbonovax709@gmail.com
ORCID: 0009-0003-2291-9958

Annotatsiya: Maqolada mintaqa iqtisodiyoti tarmoqlarining yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talabini samarali qondirishda oliy va professional ta'lim integratsiyasini ta'minlashning obyektiv iqtisodiy zaruriyati asoslangan. Texnologik yangilanish, tarmoqlar tarkibiy transformatsiyasi, kompetensiyalar tez eskirishi, mehnat bozorida malaka nomutanosibligi, ta'limdan ishga o'tishdagi uzilishlar va hududlar o'rtasida inson kapitali taqsimotining farqlanishi integratsiyani kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida tizimlashtirilgan. Oliy ta'limning ilmiy-tahliliy salohiyati bilan professional ta'limning amaliy-kasbiy imkoniyatlarini yagona mintaqaviy kadrlar tayyorlash zanjiriga birlashtirish orqali tarmoqlar ehtiyojiga mos kompetensiyalarni shakllantirishning iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan. Muallif tomonidan integratsiya zaruriyati "tarmoq talabi – kompetensiya tafovuti – ta'lim resurslarini birlashtirish – ish beruvchi ishtiroki – mehnat natijasi – qayta aloqa" mantiqiy zanjiri asosida ifodalangan.

Kalit so'zlar: mintaqa iqtisodiyoti, yuqori malakali kadrlar, oliy ta'lim, professional ta'lim, integratsiya, malaka nomutanosibligi, mehnat bozori, kompetensiya, inson kapitali, tarmoqlar talabi.

Аннотация: В статье обосновывается объективная экономическая необходимость интеграции высшего и профессионального образования для эффективного удовлетворения потребности секторов региональной экономики в высококвалифицированных кадрах. Выявлены и систематизированы ключевые факторы, стимулирующие этот процесс: технологическая модернизация, структурные преобразования в отраслях, быстрое устаревание профессиональных навыков, несоответствие квалификации кадров требованиям рынка труда, разрывы в переходе от обучения к трудоустройству, а также диспропорции в распределении человеческого капитала по регионам. Подчеркивается экономическая значимость формирования компетенций, отвечающих потребностям производства, за счет объединения научно-аналитического потенциала высшей школы и практико-ориентированных возможностей системы профессионального образования в единую региональную цепочку подготовки кадров. Необходимость интеграции иллюстрируется автором посредством логической последовательности: «потребность отрасли — дефицит компетенций — консолидация образовательных ресурсов — участие работодателей — результат на рынке труда — обратная связь».

Ключевые слова: региональная экономика, высококвалифицированные кадры, высшее образование, профессиональное образование, интеграция, несоответствие квалификации, рынок труда, компетенция, человеческий капитал, отраслевой спрос.



Abstract: The article substantiates the objective economic necessity of integrating higher and vocational education to effectively meet the demand for highly qualified personnel across regional economic sectors. Key factors driving this integration are identified and systematized, including technological modernization, structural transformation of industries, rapid skill obsolescence, labor market skill mismatches, gaps in the transition from education to employment, and disparities in human capital distribution across regions. The study highlights the economic significance of cultivating competencies aligned with industry needs by combining the scientific-analytical capacity of higher education with the practical-vocational capabilities of professional education into a unified regional workforce development chain. The author illustrates the necessity of integration through the logical sequence: “industry demand – competency gap – pooling educational resources – employer involvement – labor outcome – feedback.”

Keywords: regional economy, highly qualified personnel, higher education, vocational education, integration, skills mismatch, labor market, competence, human capital, sectoral demand.

KIRISH

Zamonaviy mintaq iqtisodiyotida raqobat ustunligi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvatlarining mavjudligi bilangina emas, balki ularni yuqori unumdorlik bilan ishlata oladigan inson kapitali sifati bilan ham belgilanadi. Ishlab chiqarishning raqamlashuvi, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt elementlarining kengayishi, yashil texnologiyalar va xizmatlar iqtisodiyotining o'sishi kasblar mazmunini o'zgartirib, yuqori malakali kadrlarga talabni murakkablashtirmoqda. Bu sharoitda ta'lim tizimi tarmoqlardagi o'zgarishlarga kechikib javob bersa, kadrlar soni o'sgan holda ham zarur kompetensiyalar tanqisligi saqlanib qolishi mumkin.

Xalqaro mehnat tashkiloti malaka nomutanosibligini ish beruvchilar talab qilayotgan ko'nikmalar bilan shaxslarda mavjud ko'nikmalar o'rtasidagi tafovut sifatida izohlaydi; bunday nomutanosiblik korxonalar unumdorligi va raqobatbardoshligiga, hududlar darajasida esa investitsion jozibadorlik va ish o'rinlari yaratilishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin [1]. Demak, mintaq iqtisodiyotida kadrlar muammosi faqat mutaxassislar soni emas, balki ularning kompetensiya tarkibi va tarmoq talabiga mosligi bilan bog'liq.

Oliy va professional ta'limning institutsional jihatdan alohida rivojlanishi muayyan vazifalarni samarali bajarish imkonini berib, ular o'rtasidagi mazmuniy uyg'unlik kadr tayyorlash zanjirida izchillik va samaradorlikni ta'minlaydi. Professional ta'lim ish joyiga yaqin amaliy kompetensiyalarni, oliy ta'lim esa yuqori darajadagi nazariy, muhandislik, tahliliy va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantiradi. Ularning o'zaro bog'lanishi esa bir kasbiy traektoriya doirasida amaliy malakadan yuqori kvalifikatsiyaga uzluksiz o'tishni ta'minlaydi.

Maqolaning maqsadi mintaq iqtisodiyoti tarmoqlarining yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talabini samarali qondirishda oliy va professional ta'lim integratsiyasini ta'minlash zaruriyatini nazariy va iqtisodiy jihatdan asoslash, mazkur zaruratni shakllantiruvchi omillarni tizimlashtirish hamda integratsiyaning mintaqaviy mehnat bozoriga ta'sir mexanizmini ochib berishdan iborat.

Mintaqalarning iqtisodiy ixtisoslashuvi turlicha bo'lgani sababli kadrlar talabi ham o'ziga xos tarkibda shakllanadi. Sanoat hududlarida avtomatlashtirish, muhandislik, texnik diagnostika va ishlab chiqarish boshqaruvi kompetensiyalariga, agrar hududlarda agrotexnologiya, qayta ishlash va logistikaga, xizmatlar ulushi yuqori hududlarda esa raqamli servis, moliyaviy texnologiyalar, turizm va boshqaruv kompetensiyalariga ehtiyoj kuchli bo'lishi mumkin. Shu bois kadrlar tayyorlash hududning tarmoq tarkibiga muvofiq rejalashtirilsa, ta'lim taklifi va iqtisodiy talab o'rtasida tarkibiy uyg'unlikni ta'minlash imkoniyati ortadi.

Xalqaro mehnat tashkiloti ko'nikmalarga ehtiyojni oldindan aniqlashni joriy va kelgusi ishchi kuchi talabini ta'lim va tayyorlash bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan strategik jarayon sifatida baholaydi [2]. Bunda talab va taklifni tahlil qilish, kelgusi ehtiyojni prognozlash va tarmoqlarga mos strategiyalarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Ushbu yondashuv oliy va professional ta'lim integratsiyasini kadrlar tayyorlashning axborot va institutsional bazasi bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 2025-yilgi ko'nikmalar bo'yicha hisobotida kasbiy va akademik yo'nalishlar o'rtasida gorizontol va vertikal harakatni ta'minlovchi moslashuvchan ta'lim traektoriyalari, modulli malakalar va avvalgi ta'lim natijalarini tan olish ishchi kuchining moslashuvchanligini saqlash va ko'nikmalar taklifini mehnat bozori talabi bilan muvofiqlashtirishga xizmat qilishi qayd etilgan [3]. Bu integratsiyani ta'lim tizimi ichidagi texnik masala emas, balki mehnat bozori samaradorligini oshiruvchi iqtisodiy institut sifatida qarashga asos beradi.



Texnologik o'zgarishlarning tezligi ham integratsiya zaruriyatini kuchaytiradi. Yangi yuqori darajali dasturlarni ishlab chiqish va mutaxassis tayyorlash vaqt talab qiladi, holbuki yangi texnologiyalar korxonalardagi kompetensiya talabini qisqa davrda o'zgartirishi mumkin. Xalqaro mehnat tashkiloti va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining qo'shma tadqiqotida ta'lim taklifi yangi ko'nikma talablariga moslashishi vaqt olishi, shu sababli kelgusi ehtiyojni tizimli oldindan aniqlash malaka nomutanosibligining oldini olish uchun muhimligi ta'kidlangan [4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy va professional ta'lim integratsiyasining zaruriyati inson kapitali, mehnat bozori muvofiqligi, uzluksiz ta'lim va institutsional hamkorlik yondashuvlari orqali izohlanadi. Inson kapitali nuqtai nazaridan ta'limga sarflangan resurslar iqtisodiy natijaga aylanishi uchun egallangan bilim va ko'nikmalar ishlab chiqarishda samarali qo'llanilishi lozim. Agar kvalifikatsiya mehnat bozori talabiga mos kelmasa, ta'limga investitsiyaning shaxsiy va ijtimoiy qaytimi pasayadi.

Malaka nomutanosibligi konsepsiyasi integratsiya zaruriyatini yanada aniq ifodalaydi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, nomutanosiblik ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan malaka, ta'lim sohasi bilan ish sohasining mos kelmasligi va texnologiyalar ta'sirida ko'nikmalarning eskirishi kabi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin [1]. Bu holat ta'limning turli bosqichlari o'rtasida axborot va mazmun almashinuvini kuchaytirishni talab qiladi.

Kadrlar ehtiyojini oldindan aniqlash nazariyasi integratsiyaning axborot asosini belgilaydi. Xalqaro mehnat tashkilotining 2015-yilgi uslubiy hujjatida kelgusi ko'nikmalar talabini aniqlash ma'lumotlar, metodologiya, vositalar va institutlarni qamrab oluvchi tizim sifatida ko'rsatilgan [5]. Demak, oliy va professional ta'limni integratsiyalash faqat qo'shma dasturlar tashkil qilish bilan cheklanmay, mehnat bozori signallarini har ikki ta'lim bo'g'iniga bir vaqtda yetkazadigan mexanizmni ham qamrab olishi kerak.

Mehnat bozori axborotidan foydalanish bo'yicha xalqaro uslubiy yondashuvda ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish, muayyan sohalarga talabalarni yo'naltirish va hududda investitsiya uchun zarur malakali ishchi kuchining mavjudligini baholash kabi qarorlar ishonchli axborotga tayanishi ta'kidlanadi [6]. Bu mintaqa darajasida ta'lim integratsiyasini investitsion va tarmoq siyosati bilan bog'lash imkonini beradi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti 2025-yilda moslashuvchan ta'lim yo'llari kasbiy ta'lim, akademik dasturlar va kattalarning malakasini oshirish o'rtasidagi harakatni yengillashtirishi, ta'lim darajalari o'rtasidagi "berk ko'chalar"ni kamaytirishi lozimligini ta'kidlaydi [7]. Bu yondashuv professional ta'lim bitiruvchisining oliy kvalifikatsiyaga o'tishi va oliy ta'limdagi nazariy tayyorgarlikning ish joyidagi amaliy o'qitish bilan bog'lanishi uchun institutsional asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv, institutsional tahlil, sabab-oqibat aloqalarini guruhlash va mantiqiy modellashtirish usullaridan foydalanildi. Integratsiya zaruriyatini shakllantiruvchi omillar mehnat bozori, ta'lim tizimi, tarmoq texnologiyalari va hududiy iqtisodiyot darajasida ajratildi. Har bir omil bo'yicha integratsiya mavjud bo'lmagan holatda yuzaga keladigan iqtisodiy muammo va integratsiya orqali shakllanadigan natija o'zaro taqqoslandi. Natijada integratsiyaning zaruriyati kadrlar talabini aniqlash, kompetensiyalarni shakllantirish, ta'lim resurslaridan foydalanish, ish beruvchi bilan aloqa va mehnat natijalarini baholash bosqichlari bo'yicha asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari oliy va professional ta'lim integratsiyasini ta'minlash zaruriyati bir nechta o'zaro bog'liq iqtisodiy sabablar bilan shakllanishini ko'rsatdi. Ularning umumiy xususiyati shundaki, alohida faoliyat yurituvchi ta'lim bo'g'inlari mehnat bozorida tez o'zgarayotgan kompleks kompetensiyalar talabini to'liq qamrab olishda axborot, vaqt va resurs cheklovlariga duch keladi.

Birinchi obyektiv zarurat texnologik o'zgarishlarning ta'lim dasturlariga nisbatan tez kechishi bilan bog'liq. Korxona yangi uskuna yoki raqamli boshqaruv tizimini joriy etganda, ishchi va mutaxassisdan bir vaqtning o'zida amaliy operatsiya, texnik diagnostika, raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish va jarayonni optimallashtirish qobiliyati talab qilinishi mumkin. Bu kompetensiyalar bir ta'lim bo'g'ini chegarasida emas, kasbiy va akademik tayyorgarlikning o'zaro to'ldiruvchi imkoniyatlari asosida samarali shakllanadi (1-jadval).



Omil	Integratsiyasiz holatdagi muammo	Integratsiya zaruriyati	Mintaqaviy iqtisodiy natija
Texnologik yangilanish	Ko'nikmalar tez eskiradi, dastur yangilanishi kechikadi	Amaliy va yuqori texnologik kompetensiyalarni birgalikda yangilash	Korxonalarning texnologiyani o'zlashtirish qobiliyati oshadi
Malaka nomutanosibligi	Bitiruvchi kvalifikatsiyasi ish beruvchi talabiga to'liq mos kelmaydi	Kompetensiyalar profilini yagona asosda shakllantirish	Kadrlar tanqisligi va qayta tayyorlash xarajatlari kamayadi
Tarmoq ixtisoslashuvi	Markazlashgan ta'lim taklifi hudud ehtiyojini to'liq aks ettirmaydi	Hududiy tarmoq talabini qabul va dasturlarga kiritish	Kadrlar taklifining hududiy mosligi oshadi
Ta'lim bosqichlari uzilishi	Kasbiy va akademik yo'llar o'rtasida takroriy o'qish va to'siqlar paydo bo'ladi	Modul, kredit va kompetensiyalarni o'zaro tan olish	Ta'lim traektoriyasi uzluksizligi ta'minlanadi
Resurslar cheklanganligi	Laboratoriya va uskunalar takrorlanadi yoki yetishmaydi	Qo'shma resurs markazlari va bazalar	Kapital resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi
Ish beruvchi bilan uzilish	Ta'lim mazmuni real ish jarayonidan ortda qoladi	Dual ta'lim va qo'shma dasturlar	Ish joyiga moslashish davri qisqaradi
Axborot parchalanishi	Vakansiya, bitiruvchi va investitsiya ma'lumotlari bog'lanmaydi	Yagona hududiy kadrlar axborot tizimi	Qarorlar tezligi va asoslanganligi oshadi

Ikkinchi zarurat malaka nomutanosibligini kamaytirishdan kelib chiqadi. Xalqaro mehnat tashkiloti malaka nomutanosibligi korxonalarda unumdorlik, raqobatbardoshlik, yangi mahsulot va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatiga salbiy ta'sir qilishi, xodimlar almashinuvi va mehnatni samarasiz tashkil etishni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatadi [1]. Shu sababli ta'lim integratsiyasi bitiruvchilar sonini emas, balki ularning ish beruvchi talabiga mos kompetensiyalarini oshirishga yo'naltirilishi kerak.

Uchinchi zarurat mintaqaviy tarmoq ixtisoslashuvi bilan belgilanadi. Hududda qaysi tarmoqlar tez o'ssa, kadrlar talabining tarkibi ham shu yo'nalishda o'zgaradi. Biroq professional va oliy ta'lim qabul parametrlari hamda dasturlari alohida rejalashtirilsa, hududning yagona kadrlar balansi shakllanmaydi. Integratsiya esa tarmoq talabi asosida turli kvalifikatsiya darajalari bo'yicha kadrlar zanjirini bir vaqtda rejalashtirish imkonini beradi.

To'rtinchi zarurat ta'lim traektoriyalaridagi institutsional uzilishlarni bartaraf etish bilan bog'liq. Professional ta'limda egallangan kompetensiyalar oliy ta'limda tan olinmasa, talabaga bir xil mazmunni qayta o'zlashtirishga to'g'ri keladi. Bu vaqt va resurs yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti modulli malakalar va avvalgi ta'lim natijalarini tan olishni kasbiy va akademik yo'llar o'rtasida harakatchanlikni oshiruvchi vosita sifatida tavsiya qiladi [3].

Beshinchi zarurat ta'lim resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq. Yuqori texnologik laboratoriyalar, trenajyorlar va ishlab chiqarish uskunolari katta kapital xarajat talab qiladi. Oliy ta'lim, professional ta'lim va korxonalar bir hududda alohida resurs bazalarini yaratishi o'rniga qo'shma markazlardan foydalansa, uskunalar yuklamasi va ta'limning texnologik sifati oshadi. Bu integratsiyaning to'g'ridan-to'g'ri resurs samaradorligi ta'sirini shakllantiradi.

Oltinchi zarurat ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi axborot kechikishini qisqartirishdan iborat. Korxonadagi texnologik o'zgarishlar ta'lim muassasasiga rasmiy standartlar yangilanishi orqali yetib borsa, ma'lum vaqt yo'qotiladi. Dual ta'lim, qo'shma kafedra, tarmoq kengashi va ish beruvchi ishtirokidagi dasturlar esa yangi talabni bevosita o'quv mazmuniga kiritish imkonini beradi.

Yettinchi zarurat hududiy mehnat bozori axborotining parchalanganligi bilan bog'liq. Vakansiyalar, ish haqi, investitsiya loyihalari, qabul parametrlari va bitiruvchilar bandligi alohida ma'lumot tizimlarida qolsa, kadrlar bo'yicha qarorlar bir butun manzaraga asoslanmaydi. Xalqaro mehnat tashkiloti mehnat bozori axborotini ta'lim va bandlik strategiyasining asosi deb hisoblaydi [6]. Integratsiya ushbu axborotni ta'limning har ikki bo'g'ini uchun umumiy qaror qabul qilish resursiga aylantirishi lozim.

2-jadval integratsiya zaruriyatini ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik emas, balki butun "talabdan natijagacha" zanjirdagi uzilishlarni bartaraf etish ehtiyoji sifatida ko'rsatadi. Agar zanjirning faqat bir bo'g'ini isloh qilinsa, qolgan bosqichlardagi nomutanosiblik umumiy samarani cheklaydi. Masalan, qabul parametrlari

1 Manba: Muallif ishlanmasi.



tarmoq talabiga moslashtirilgani bilan o'quv dasturi va amaliy tayyorgarlik o'zgarmsa, kadrlar soni ortishi sifat tafovutini bartaraf etmaydi (2-jadval).

2-jadval
Integratsiya zaruriyatining ta'lim-mehnat bozori zanjirida namoyon bo'lishi²

Zanjir bosqichi	Mavjud ehtimoliy uzilish	Integratsiya orqali yechim	Asosiy samara
Tarmoq talabi	Talab haqida ma'lumot kechikib yetadi	Yagona prognoz va ish beruvchilar so'rovi	Erta aniqlangan kadrlar ehtiyoji
Kvalifikatsiya talabi	Kasb nomi bor, kompetensiya tarkibi noaniq	Qo'shma kompetensiyalar xaritasi	Ta'lim mazmunining aniqligi
Ta'lim dasturi	OTM va professional ta'lim modullari takrorlanadi	Modullarni muvofiqlashtirish va tan olish	Vaqt va resurs tejamlorligi
Amaliy tayyorgarlik	Nazariya va ish jarayoni o'rtasida uzilish	Dual va ish joyida o'qitish	Amaliy tayyorgarlik sifati
Ishga o'tish	Bitiruvchiga qo'shimcha qayta tayyorlash talab etiladi	Ish beruvchi bilan maqsadli tayyorlash	Moslashish xarajatlari pasayadi
Natija monitoringi	Bandlik natijasi dasturga qaytmaydi	Bitiruvchilarni kuzatish va qayta aloqa	Dasturlarni doimiy yangilash

Integratsiyaning zaruriyatini iqtisodiy jihatdan ta'lim xarajatlarining natijaviyligi orqali ham asoslash mumkin. Davlat, xonadon va korxona ta'limga resurs sarflaydi. Agar bitiruvchi o'z malakasiga mos ish topmasa yoki ish beruvchi uni qayta tayyorlashga majbur bo'lsa, qo'shimcha tranzaksiya va tayyorlash xarajatlari yuzaga keladi. Integratsiya mazkur xarajatlarni dasturlarni oldindan muvofiqlashtirish va ish beruvchini tayyorlash jarayoniga jalb etish orqali kamaytirish imkonini beradi.

Mintaqa darajasida integratsiyaning yana bir samarasi inson kapitalini hududiy rivojlanish maqsadlariga bog'lashdir. Investitsiya dasturlarida yangi ishlab chiqarish quvvatlari rejalashtirilgan paytdanoq professional va oliy ta'lim muassasalari kadrlar tayyorlash zanjiriga kiritilsa, obyekt ishga tushishi bilan zarur malakadagi mahalliy kadrlar taklifini shakllantirish imkoniyati ortadi. Bu tashqi hududlardan kadr jalb qilishga bog'liqlikni qisqartirishi va investitsiyaning mahalliy bandlikka ta'sirini kuchaytirishi mumkin (3-jadval).

3-jadval
Oliy va professional ta'lim integratsiyasining zarurligini baholash uchun taklif etiladigan indikatorlar³

Indikator	Mazmuni	Integratsiya zaruriyati yuqori bo'lgan holat
Mos bandlik darajasi	Bitiruvchilarning mutaxassisligiga mos ishda bandligi	Ko'rsatkich past bo'lsa
Kadrlar tanqisligi	Uzoq vaqt to'lmay turgan malakali vakansiyalar	Tanqislik yuqori bo'lsa
Qayta tayyorlash ulushi	Ishga kirgan bitiruvchilardan qo'shimcha tayyorlash talab etilganlar	Ulush yuqori bo'lsa
Dasturlar takrorlanishi	Ikki ta'lim bo'g'inida mazmunan bir xil modullar	Takrorlanish yuqori bo'lsa
Ish beruvchi qoniqishi	Bitiruvchi kompetensiyalariga baho	Qoniqish past bo'lsa
Ta'limdan ishga o'tish vaqti	Bitirishdan mos ishga kirishgacha davr	Davr uzoq bo'lsa
Texnologik yangilanish tezligi	Tarmoqda yangi texnologiya va vazifalarning paydo bo'lishi	Yangilanish tez bo'lsa
Kadrlar migratsiyasi	Tayyorlangan yuqori malakali kadrlarning hududdan chiqishi	Chiqib ketish yuqori bo'lsa

Taklif etilayotgan indikatorlar integratsiyaning barcha hudud va tarmoqlarda bir xil darajada kuchaytirish emas, balki obyektiv ehtiyoj yuqori bo'lgan sohalarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, muayyan tarmoqda vakansiyalar tez to'lsa, ish beruvchi qoniqishi yuqori va qayta tayyorlash ehtiyoji past bo'lsa, mavjud ta'lim mexanizmi nisbatan samarali ishlayotgan bo'lishi mumkin. Aksincha, bir vaqtning o'zida kadrlar tanqisligi va

² Manba: Muallif ishlanmasi.

³ Manba: Muallif ishlanmasi.



bitiruvchilar ishsizligi kuzatilsa, bu tarkibiy nomutanosiblik belgisi hisoblanadi. Shu sababli integratsiya siyosati miqdoriy emas, diagnostik yondashuvga asoslanishi kerak. Hududiy kadrlar balansida yuqoridagi indikatorlar tarmoqlar kesimida baholanib, integratsiyaning chuqurligi shunga mos belgilanishi mumkin: ayrim sohalarda o'quv modullarini muvofiqlashtirish yetarli bo'lsa, texnologik tez o'zgarayotgan tarmoqlarda qo'shma dastur, dual ta'lim, resurs markazi va maqsadli buyurtmani bir vaqtda qo'llash talab etiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ham ta'lim va kasbiy yo'llar o'rtasida moslashuvchan harakat, kattalarning qayta malaka oshirishi va mehnat bozoriga mos axborot tizimlarini bir-biri bilan bog'langan holda rivojlantirishni ta'kidlaydi [7]. Demak, integratsiya zaruriyati faqat yoshlarni birinchi kasbga tayyorlash bilan cheklanmaydi; u mehnat faoliyati davomida malaka oshirish va qayta kasblanishni ham qamrab oladi.

Oliy va professional ta'lim integratsiyasini ta'minlash zaruriyatini mutlaq institutsional birlashtirish bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq emas. Integratsiya muassasalarning tashkiliy mustaqilligini bekor qilishni emas, balki ularning funksiyalarini mintaqaviy kadrlar natijasi atrofida muvofiqlashtirishni anglatadi. Bunda har bir ta'lim bo'g'inining nisbiy ustunligi saqlanib, takrorlanuvchi vazifalar qisqartiriladi va o'zaro to'ldiruvchi resurslar birlashtiriladi. Integratsiyaning chuqurligi tarmoq xususiyatiga qarab farqlanishi lozim. Texnologik murakkab sanoat, energetika, axborot texnologiyalari va yuqori texnologiyali xizmatlarda kasbiy hamda akademik kompetensiyalar tez birlashib borayotgani uchun integratsiyaga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Barqaror texnologiyali sohalarda esa ma'lumot almashinuvi va modullarni muvofiqlashtirishning o'zi yetarli bo'lishi mumkin.

Integratsiyani ta'minlashda ish beruvchilarning ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari tarmoq talabini faqat statistika orqali emas, ish jarayonidagi vazifalar va texnologiyalar orqali ham anglashi kerak. Shu bois tarmoq kengashlari, qo'shma malaka komissiyalari, dual ta'lim va korxona buyurtmalari integratsiyaning amaliy institutsional shakllari sifatida qaralishi mumkin. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, integratsiya zaruriyatining umumiy mantiqiy modeli "tarmoqda texnologik va tarkibiy o'zgarish → kompetensiya talabining yangilanishi → ta'lim taklifi bilan tafovutning paydo bo'lishi → oliy va professional ta'lim resurslarini muvofiqlashtirish → ish beruvchi bilan birgalikda kompetensiya shakllantirish → mos bandlik va mehnat unumdorligi natijasi → monitoring asosida dasturlarni qayta yangilash" zanjiri orqali ifodalanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari mintaq iqtisodiyoti tarmoqlarining yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talabini samarali qondirishda oliy va professional ta'lim integratsiyasini ta'minlash ixtiyoriy tashkiliy chora emas, balki texnologik o'zgarishlar, malaka nomutanosibligi, hududiy ixtisoslashuv va ta'lim resurslaridan samarali foydalanish ehtiyojidan kelib chiquvchi obyektiv iqtisodiy zarurat ekanligini ko'rsatdi.

Birinchidan, integratsiya zaruriyatini har bir hudud va tarmoq kesimida mos bandlik, kadrlar tanqisligi, ish beruvchi qoniqishi, qayta tayyorlash ehtiyoji va texnologik yangilanish sur'ati asosida baholash maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, yuqori integratsiya ehtiyoji aniqlangan tarmoqlarda professional va oliy ta'limning o'quv modullari yagona kompetensiyalar xaritasi asosida muvofiqlashtirilishi lozim.

Uchinchidan, professional ta'limda egallangan kompetensiyalarni oliy ta'limda tan olish, kredit va modullarni ko'chirish hamda kasbiy yo'nalishdan yuqori kvalifikatsiyaga o'tish traektoriyalarini institutsionallashtirish zarur. To'rtinchidan, ish beruvchilarni kadrlar ehtiyojini prognozlash, o'quv mazmunini shakllantirish, dual tayyorgarlik va bitiruvchilarni baholash jarayoniga doimiy ishtirokchi sifatida kiritish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, oliy va professional ta'lim muassasalari hamda korxonalarning laboratoriya, ustaxona va texnologik bazalaridan qo'shma foydalanish mexanizmlarini kengaytirish resurs samaradorligini oshiradi. Oltinchidan, hududiy kadrlar balansida axborot tizimida vakansiya, investitsiya, ta'lim taklifi va bitiruvchilar mehnat natijalarini birlashtirish orqali integratsiyaning ma'lumotlar bazasini shakllantirish zarur.

Umuman, oliy va professional ta'lim integratsiyasini "tarmoq talabi → kompetensiya tafovuti → integratsiyalashgan ta'lim resursi → ish beruvchi bilan birgalikda tayyorlash → mehnat natijasi → qayta aloqa" tamoyili asosida ta'minlash mintaqaviy kadrlar bozoridagi tarkibiy nomutanosibliklarni qisqartirish, inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar qaytimini oshirish va mintaq iqtisodiyoti tarmoqlarining texnologik rivojlanishini malakali kadrlar bilan barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International Labour Organization. What is skills mismatch and why should we care? – Geneva: ILO, 2020.
2. International Labour Organization. Skills needs anticipation. – Geneva: ILO.
3. OECD. OECD Skills Outlook 2025: Building the Skills of the 21st Century for All. – Paris: OECD Publishing, 2025. DOI: 10.1787/26163cd3-en.



4. ILO, OECD. Approaches to Anticipating Skills for the Future of Work. – Geneva: ILO, 2018.
5. International Labour Organization. Anticipating and Matching Skills and Jobs. – Geneva: ILO, 2015.
6. Řihova H. Using Labour Market Information: Guide to Anticipating and Matching Skills and Jobs. Volume 1. – Geneva: ILO, ETF, Cedefop, 2016. – ISBN 978-92-9157-642-5.
7. OECD. Widening Opportunities by Investing in 21st-century Skills // OECD Skills Outlook 2025. – Paris: OECD Publishing, 2025.
8. International Labour Organization. Methodological Guides on Anticipation and Matching of Skills. – Geneva: ILO, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
